

## O‘SMIRLARNING OTA-ONALARI BILAN MUNOSABATLARIDAGI MUAMMOLAR

Vaxobova Muxtabar- Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasida stajyor o‘qituvchisi,

Nishonova Shohsanam Otamurod qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti I bosqich talabasi

[vaxobovamuxtabar0307@gmail.com](mailto:vaxobovamuxtabar0307@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda o‘smirlarning ota-onalari bilan vujudga kelayotgan kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik omillari va uni hal etish borasidagi qarashlar yoritilgan .

**Kalit so‘z:** O‘smir, ideal men, depressiya, nizoli vaziyat, muloqot.

Bugungi kunda dunyo aholisining 30% dan ko‘prog‘i yoshlar bo‘lsa, ushbu foizning ko‘p qismini 10-14 yoshli o‘smirlar tashkil qiladi. Shunday ekan, O‘smirlar xulq-atvori va psixologik xususiyatlari haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish va uni amaliyotda qo‘llash tarbiya borasidagi eng muhim jihat hisoblanadi. O‘smirlik davri E.G‘.G‘oziyev bo‘yicha 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangiliklarga intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma‘naviy dunyosi boyiydi va shu bilan birgalikda ziddiyatlar avj oladi.

O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, unda yangi hislar, chigal masalalar paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi va bu yoshdagi o‘smir rivojlanishida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Masalan, o‘smirlarda men kata insonmanmi yoki kichik? degan savol paydo bo‘ladi va bu savol ularda ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Buni biz bolalarning kattalarga bergan savollari va bildirgan e‘tirozlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, mas‘uliyatli vazifalar haqida gap ketganda, o‘smirning ota-onasi va yaqinlari tomonidan “sen endi katta bo‘lding deyiladi-yu, o‘zlari erkin qaror qabul qilishga kelganda “sen hali kichiksan” deyiladi. O‘smirning ota-onasi bilan yuzaga keladigan ziddiyatlarning asli sababi ham ayni mana shundan kelib chiqadi.

Shuning uchun hozirgi kunda o‘smirlarning ota-onasi o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni ko‘payib, kundan-kunga dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. O‘smirlarning ota-onasi bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishning zaruriy shartlari: kattalarning ular bilan hamkorlik sohalarini kengaytirish ya‘ni birgalikda suhbatlashish, o‘zaro yordam va ishonch tuyg‘ularini yaratish lozimdir. O‘smirlarning xulq-atvori va psixologik holatiga oiladagi muhit va atrofdagi tengdoshlari katta ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada farzand tug‘ilgandan boshlab ta‘lim va

tarbiyani ota-onasidan oladi, ota-ona ular uchun ko'zgu rolini bajaradi.

Assotsiativ psixologiyaning asoschisi Jon Lokk o'zining tadqiqotlarida inson qalbini toza doskaga o'xshatadi, bu doskaga nima yozish insonning o'ziga bog'liqligini aytadi. Shunday ekan bolalarni ham yaxshi yoki yomon tarbiyalash ota-onalarga bog'liq mas'uliyatli vazifadir. Hech qaysi ota-ona farzandining yomon xulqli bo'lishini xohlamaydi, biroq ota-ona farzandiga tanbeh bersa, nasihat qilsa, ularni koyisa, "farzandim meni yomon ko'rib qoladi" degan fikr bo'ladi, lekin ota-onadan tanbeh eshitgan bola, ota-onasini emas, balki o'zini yomon ko'rib qoladi. Natijada o'zining "ideal men"ini yo'qotib qo'yadi, ota-onasi bilan o'rtalarida kelishmovchiliklar kelib chiqadi, oqibatda ularda "ota-onam meni tushunmaydi" degan fikr paydo bo'ladi. Va ular o'zlarini "tushunadigan inson"larni tashqi muhitdan qidira boshlaydi, lekin bunday holatlarda ota-ona farzandini tushunadigan do'st o'zlari ekanliklarini, farzandlarini yaxshi ko'rishlarini, nima bo'lishidan qat'iy nazar uni qo'llab quvvatlashlarini farzandlariga aytishi bu kabi vaziyatlarda ayniqsa muhimdir. Aksincha ota-onalar farzandining o'zligini anglashga yordam berishlari, muommolariga birgalikda yechim topishlari kerak. Chunki oila o'smir hayotida muhim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Z.Freyd klassik psixoanalizda ota-onalarning bolalarining aqliy rivojlanishiga ta'siri markaziy o'rinni egallashini aytgan ya'ni, ota-onalarning bolaga g'amxo'rlik qilishi haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlar xulq-atvoridagi moslasha olmaslik muommosi natijasida, o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy, axloqiy me'yorlarni tan olmasligi va xulq-atvor buzilishi kuzatiladi. Bunday o'smirlarning psixologik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu boisdan ular xulq – atvori buzilishining oldini olishda asosiy o'rinda turuvchi - oilaviy tarbiya muhitiga e'tibor berish lozim. Ota-ona farzandlari bilan ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ko'proq muloqat qilishi, ularni qiziqtirayotgan voqea- hodisalar to'g'risida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida qiziqishlarni erta aniqlash va uni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'smirlik yosh davrining muhim va dolzarb mavzu ekanligi hamda bu yosh davrining psixologik xususiyatlariga va o'zgarishlariga jamiyatning har bir a'zosi bee'tibor bo'lmasligini aytib o'tish ham o'rinlidir. O'smir tarbiyasiga oilada ota-ona va yaqinlari ta'lim muassasasida bo'lsa barcha pedagoglar birdek mas'uldir.

Xulosa o'rnida oilada ota-onalar quyidagilarga e'tibor berishlari maqsadga muvofiq:

- O'smir yoshidagi farzandlariga e'tiborli bo'lish;
- O'smir bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishni nazorat qilib borishi;
- O'smirning qiziqishlariga qo'llab-quvvatlash;
- Do'stona muloqotni yo'lga qo'yish.

O'smirlik davridagi o'g'il-qizlarga uzundan-uzoq va zerikarli nasihatlar berish befoyda, aksincha ularni mustaqil fikrlashga undovchi savollar berib,

ma'lum vaziyatlarni o'smirning o'zi to'g'ri tushunishiga imkon yaratish lozim. Ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda vaqt o'tkazishi va u bilan suhbatlash bu yosh davrdagi inqirozni yengisgda juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Z.T.Nishonova, N.G. Komilova, D.U Abdullayev, M.X Xolnazarova - Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent2018 322-344
- 2.X.Muzzaffarova Ijtimoiy psixologiya .Oila psixologiyasi. Jizzax 2010
3. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent. 2004 y.
4. Voxobova Muxtabar, Kamolova Shirin Usarovna,Основные особенности гендерного воспитания дошкольников, Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 15,February , 2023
5. Qodirova Malikaxon Kaxramonovna, Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi AQLIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNDA TESTLARDAN FOYDALANISH «Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an'analar va istiqbollar» mavzuidagi I-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-qism). Jizzax, 2023. – 398 bet.
- 6.Malikaxon Qodirova, МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH , Журнал Педагогике и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari.
7. Jumanova, N & Vahobova, M. (2022). KICHIK МАКТАВ YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php>.
- 8.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OТА-ONA MUNOSABATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1).
- 9.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OТА-ONA MUNOSABATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1).
- 10.Usmonova, M. (2023). O'SMIRLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3).
- 11.Usmonova, M. (2023). МАКТАВДАН TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 152-155.
- 12.Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 2(2).
- 13.Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-

ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).

14. Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

15. Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.

16. И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ. *EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(12), 186–190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>

17. Xasanova, I. A (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLISHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

18. Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

19. Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

20. Xasanova, I. (2024). O'QUVCHILAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA TA'LIMNING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 174-180. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9561>

21. Shakarboyeva, & O'ktamova, O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOYILASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKLAGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

22. Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONiyATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

23. Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

- 24.Shakarboyeva. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>
- 25.Shakarboyeva, & Худойкулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>
- 26.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 27.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
- 28.Iroda, X. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF LEADERSHIP. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 16-18.
- 29.Munira Usmonova, OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA - ONA MUNOSABATLARI , *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*: № I (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
- 30.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 31.Собирова, ФН (2024). Психологические особенности учащихся начальных классов. *Wire Insights: Журнал Innovation Insights* , 2 (2), 16–18.
- 32.Файзиева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).
- 33.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.
- 34.Fayziyeva, nodira. (2024). BOSHLANG‘ICH MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA ALOQA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8721>
- 35.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.